

## XORIJIY VA MAHALLIY OLIMLAR TOMONIDAN NIKOH VA OILA MASALALARINING O'RGANILGANLIGI

Erkinboyeva Xolida Shavkat qizi,  
O'zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali magistranti

*Annotatsiya: Mazkur maqolada nikoh va oila munosabatlari haqida xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar birma-bir to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga oila barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar, shaxslararo munosabatning maqsadga muvofiq kechishi uning a'zolari, xususan er-xotinlarning oilaviy qadriyatlarni qanday darajada kundalik turmushda namoyon qilishlariga bog'liq masalalar ochib berilgan.*

*Kalit so'zlar: Nikoh, oila, shaxslararo munosabatlar, ota-onasi va bola munosabatlar, zamonaviy oila, oiladagi qadriyatlar.*

## ИЗУЧЕНИЕ ВОПРОСОВ БРАКА И СЕМЬИ ЗАРУБЕЖНЫМИ И МЕСТНЫМИ УЧЕНЫМИ

Эркинбоева Холида Шавкат қизи,  
магистрантка Джиззакского филиала Национального университета  
Узбекистана

*Аннотация: В данной статье поочередно рассматриваются исследования, проводимые зарубежными и отечественными учеными по вопросам брака и семейных отношений. При этом выявляются факторы, влияющие на стабильность семьи, межличностные отношения, а также то, как ее члены, в частности пары, демонстрируют семейные ценности в своей повседневной жизни.*

*Ключевые слова: Брак, семья, межличностные отношения, отношения родителей и детей, современная семья, семейные ценности.*

## STUDY OF MARRIAGE AND FAMILY ISSUES BY FOREIGN AND LOCAL SCHOLARS

Erkinboyeva Xolida Shavkat qizi,  
Graduate student of the Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan

*Abstract: In this article, the researches conducted by foreign and domestic scientists about marriage and family relations are discussed one by one. At the same time, the factors affecting family stability, interpersonal relations, and how its members, in particular, couples, demonstrate family values in their daily life, are revealed.*

*Key words: Marriage, family, interpersonal relations, parent and child relations, modern family, family values.*

Jamiyatning turli davrlarida oila masalasi olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, Sharq mutafakkirlari va davlat arboblari – Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Shal (Tilyeuke) Kulkeo'g'li, Ahmad Donish, Abay Qo'nambayev, Rizouddin ibn Faxruddin, Faxr-ul Banot Sibg'atulloh qizi, Abdurauf Fitrat va boshqalarning asarlaridagi oila-nikoh munosabatlari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, ota-onaning vazifalari, farzandlar burchi haqida g'oyatda ibratli maslahat va o'gitlari bayon etilgan.

Dunyoga mashhur olim, ma'rifatparvar Abu Nasr Farobi keraksiz urf-odatlardan (hozir ham oilaviy hayotda, er-xotin munosabatlarida uchraydi) voz kechish, baxt – saodatga erishish yo'llari haqida gapirib shunday deydi: "Rahbarlar (er yoki xotin)

yomon odatlarni o‘zida ifodalovchi o‘tmishni ham o‘zgartirmog‘i kerak. Aks holda o‘tmish talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday yengillik, o‘zgarish va o‘sish ham bo‘lmaydi”. Shuningdek, “Baxt saodatga erishuv yo‘lida nimaiki (bilim, odob-axloq, kasb-hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamlamoq, nimaiki zararli bo‘lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur.

Yusuf Xos Hojibning mashhur “Qutadg‘u bilig” asarida ham er yoki xotin tanlashda uning qaysi sifat va fazilatlariga e’tibor berish zarurligi, inson shaxsiga xos sifat va fazilatlarning oilaviy hayotni boshqarishdagi roli, o‘rni va ahamiyati, er-xotin o‘zaro munosabatlarining me’yorlari, farovon turmush kechirishning muhim shartlari haqida qimmatli fikrlar keltiriladi. Asarda muallif kelin tanlash masalasi bo‘yicha quyidagicha maslahat beradi: “Sen xotin olsang, o‘zingdan quyisini ol, zoti oliysiga boqma, sen qul bo‘lib qolasan. Asli, urug‘i hamda zoti yaxshi bo‘lsin, uyatli, andishali, pokizasini istagin.

Sharq mutafakkirlaridan biri Ahmad Donish o‘zining “Navodir ulvaqoe” (Nodir voqealar) nomli asarida “Nikoh odoblari bayoni, uylanish shartlari, qaynona va kelinning xusumati” haqida batafsil bayon qilgan. Mutafakkirning fikricha, inson muayyan yoshta yetgandan keyin unda oila qurishga, uylanishga zarurat paydo bo‘ladi. Albatta, bu davrda inson oila, oilaviy baxt, er-xotinlik, farzandlik, ota-onalik burchlari haqida tushunib yetgan bo‘ladi. Darhaqiqat, donishmand ayolni sevmoq, hurmat qilmoq har bir erkakning vazifasi ekanligini aytib o‘tadi. Oilaviy baxt insonlarning orzu-istiklari, maqsadlariga yetishib yashashdir. Ahmad Donish fikricha, oilaviy baxt ko‘proq xotinlarga bog‘liq, chunki, erkak uchun soliha xotindan ortiqroq hech bir ne’mat yo‘qdir,

Oila nafaqat individ xulq-atvorini shakllantiradi va belgilaydi, balki hayot davomida sezilarli darajada saqlanib qoladigan xulq-atvorning emotsional rejasini va tuzilishini to‘playdi, shu bilan birga har bir aniq davrda xulq-atvorga o‘zgaruvchan ta’sir ko‘rsatadi. S.I.Golod oilaning 3 ta tarixiy tipini ajratib ko‘rsatadi: patriarxal (an’anaviy), detotsentrik (zamonaviy), er-xotinlik (zamonaviydan keyingi).

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda nikoh-oila muammolarini ilmiy tadqiq etish borasida o‘ziga xos an’analar shakllangan. Xorij olimlaridan, J.F.Mak-Lennan, L.G.Morgan, D.Lebbok, G.Spenser, U.Vilken, F.Gelvald, S.Leturno, M.M.Kovalevskiy, I.N.Smirnov, E.I.Yakushkina, N.N.Xaruzinlarning asarlarida nikoh va oila munosabatlarining shakllanishi matriarxat va patriarxat davrlari haqidagi fikr - mulohazalar ilgari surilgan. Ijtimoiy-siyosiy va pedagogik mutaxassislarining fikriga ko‘ra, XX asrning so‘nggi o‘n yillarda ro‘y bergen muhim ijtimoiy o‘zgarishlar shaxsiy hayot yo‘nalishini belgilovchi ijtimoiy me’yorlarning yo‘q qilinishiga olib keldi. Bunday o‘zgarishlar zamonaviy odamlarning oila, nikoh munosabatidagi o‘zgarishlarning sabablari edi. Ijtimoiy institut sifatida oilaga bo‘lgan munosabat tabiatining o‘zgarishi hamda er va xotin, bolalar va ota-onalar, aka-uka va opasingillar o‘rtasidagi nikoh va oila munosabatlari muammosi hal qilinmadı. MDH mamlakatlaridan V.M.Chernyak, O.A.Karabanova, G.M. Andreeva, A.Xarchev, S.I.Golod, L.B.Tolstova, A.Libin, R.S.Nemov kabi olimlar tomonidan olib borilgan. tadqiqotlarda nikoh-oila munosabatlarining sosiologik va ijtimoiy psixologik jihatlari o‘rganilgan [2] Mamlakatimizda nikoh-oila munosabatlariga oid bir qator ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar M.G.Davletshin, G‘.B.Shoumarov, V.A.Tokareva V.M.Karimova, N.A.Sog‘inov, R.I.Sunnatova, Z.A.Rasulova, N.S.Safoev, T.M.Adizova, N.Salaeva va boshqalar tomonidan o‘zbek oilasining etnik, hududiy, undagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga e’tibor qaratganlar. O‘zbek oilalarining o‘ziga xosligi va etnopsixologik tomonidan betakrorligi Z.A.Rasulovaning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Aynan ushbu ish metodologik asos sifatida zamonaviy

o'zbeklar nikoh-oila munosabatlarning rivojlanishida milliy qadriyatlarning o'rni ni o'rganishga zamin yaratadi. Zamonaviy oiladagi oilaviy munosabatlarning muammosini keng ko'lamli o'rganishlariga qaramay, bir qator muammolar haligacha hal qilinmagan, oila mustahkamligini ta'minlovchi omillar sifatida milliy qadriyatlар alohida predmet ko'rinishida o'rganilmagan.

Nikoh-oila munosabatlari bilan bog'liq izlanishlarga S.V.Kovalev, N.N. Obozov kabi chet el olimlari, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, M.G.Davletshin, N.A.Sog'inov, A.Shojalilov, T.M.Adizova, F.R.Ro'ziqulov kabi Respublikamiz olimlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. N.N.Obozov oilaviy hayotdan qoniqmaslik, nikohning buzilishi va beqarorligini belgilovchi sabablarni er bilan xotin o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy funktsiyaning tenglashtirilishidandir deb tushuntiradi. S.V.Kovalevning ta'kidlashicha, yoshlarda oilaviy hayot va turmush tarziga xos to'g'ri tasavvurlar yetarli emasligi sababli turmush qurbanlarida oilanikoh munosabatlaridan qoniqmaslik holatlari ko'p uchraydi. Respublikamizning yetakchi psixolog olimlaridan G'.B.Shoumarov o'z tadqiqotlari natijalariga tayanib, oilaning mustahkam bo'lishi, er-xotinning baxtiyor hayot kechirishlari va tinch-totuv yashashlarida ularning o'zaro qovushishi muhim rol o'ynaydi deb ko'rsatadi va uchga bo'ladi. Ular: 1) biologik, 2)psixologik, 3)sotsial qovushuvlardir va tahlili bo'yicha, oila qurban shaxslarni kasb-faoliyati va oila haqidagi tasavvurlari, xo'jalik ishlarini yurita olmasliklari, jinsiy tarbiyaga ega emaslik, bolalarni tarbiyalashdagi kelishmovchilik farzandsizlik, rashk va ishonchszlik ekanligini ko'rsatib o'tadi.

V.M.Karimova tadqiqotlarida oilaviy ijtimoiy tasavvurlar shakllanishida bola shakllanayotgan oila va undagi o'zaro munosabatlar xarakteri muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. M.G.Davletshin tadqiqotlarida o'zbek oilasining etnopsixologik muammolari keng qamrovli o'rganilgan.

Jumladan, H.Uzaqov, E.G'.G'oziyev, A.Tojiyevlar yoshlarni oilaviy hayotga jismoniy, ijtimoiy-psixologik, ruhiy-ma'naviy jihatdan tayyorlash borasida bir qator vazifalar mavjudligini e'tirof etadilar. Shuningdek, yoshlarni turmush qurishga tayyorlash davomida ajralishdek mudhish voqeа oila muhiti uchun fofia ekanligini ularning ongiga singdirish, oila a'zolari o'rtasidagi shaxslararo nizolarning yomon oqibatlarini yaqqol misollar yordamida tushuntirish bu sohadagi soxta, tor ma'nodagi fikrlarni bartaraf qilishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydilar. G'.B.Shoumarovning "Oila psixologiyasi" darsligida oila psixologiyasining umumiylasoslari, oila tasniflanishi, nikoh oldi omillari xususiyatlari va ularning nikoh mustahkamligiga ta'siri, oilada shaxslararo munosabatlar va muloqot psixologiyasi, oilaviy nizolar, ajralish, uning sabab va oqibatlar xususida batafsil so'z boradi.

M.S.Salayeva ilmiy ishlarida o'zbek oilalarida ota-onalik farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, ota-onalarning ota-onalik roliga nisbatan ustanovkasi va munosabatlarining ijtimoiy-psixologik, hududi, jinsiy xususiyatlarini tavsiflovchi holatlar tadqiq etilgan.

M.X.Fayziyeva oila barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, individual-tipologik, shaxslararo o'zaro munosabatlar xususiyatlarini tahlil qilib, oilaviy kelishmovchiliklar sabablarini ko'rsatib o'tadi.

M.M.Mamatov turli millat vakillari oilalarining etnopsixologik xususiyatlari haqida to'xtalib o'tar ekan, o'zbek va qozoq xalqlarining o'ziga xos oilaviy urf-odat, an'analari, marosimlari o'rtasidagi tafovutlarni misollar bilan bayon qilgan. Masalan, qozoq xalqlaridagi "qiz olib qochish" udumining paydo bo'lishi xususida muallif shunday deydi: "Qiz olib qochish" udumi guruhiy nikohning barham topishi va ekzogam nikohga o'tish davrida vujudga kelgan, deb hisoblanadi. Guruhiy nikohda urug'dagi barcha ayollar

shu guruhdagi barcha erkaklarga tegishli bo‘lgan. Boshqa guruhdan begona erkakning aralashishi qattiq ta’qiqlangan va jazolangan.

T.B.Kartseva nikohni inson hayotidagi tub burilish hodisasi deb baholab, bu davrda shaxs rivojlanish vaziyatining o‘zgarishi, buning natijasida rollar almashinushi, o‘zaro ta’sirga kirishuvchi shaxslar doirasining hamda hal qilinadigan hayotiy muammolar va turmush tarzining o‘zgarishi yuz berishini ta’kidlab o‘tadi. Uning fikricha, o‘z ichiga ham ijobjiy, ham salbiy o‘zgarishlarni qamrab olgan bunday hayot hodisalarining yuz berishi shaxsda o‘zgarishlarga olib keladi, undagi “men” tizimi qayta quriladi va shaxs tomonidan og‘riqli kechiniladi.

E.S.Kalmikova nikohdagi dastlabki hayot muammolari haqida to‘xtalib, turmush qurgandan keyingi dastlabki bir-ikki yil muomalaning individual stereotiplari shakllanishi, qadriyatlar tizimi moslashuvi, umumiy xulq-atvorning ishlab chiqilish davri ekanligini ko‘rsatib o‘tadi.

A.N.Volkova va Ye.I.Trapeznikova fikricha, yosh oila uchun bolalar tug‘ilgunga qadar o‘z oilaviy tarzini ishlab chiqishdagi qiyinchiliklar, bir-birlarini tobora chuqurroq o‘rgana borish natijasida hafsalasi pir bo‘lishlik, oiladagi funksiyalarni taqsimlash ko‘proq xarakterli hisoblanadi.

V.P.Levkovich va O.E.Zuskova er-xotinlar o‘rtasidagi nizolarning yuzaga kelishida ulardagi nikohga kirishdagi kutilmalar sabab bo‘lishini e’tirof etadilar. Yosh rafiq va rafiqqa uchun bir-birlariga nisbatan kutilmalarning yuqoriligi hamda ular ko‘pincha haqiqatga mos kelmasligi nizolar asosini tashkil etadi. Bundan tashqari rolli kutilmalarning mutlaq mos kelmasligi rolli xulq-atvorning yangi xususiyatlarini ochib beruvchi turli xil stresslar, ijtimoiy yetilish maromidagi tafovutlar hamda bir qancha boshqa omillar va holatlar bilan qo‘shilib kelishi mumkin.

L.B.Shneyder fikricha, turmush qurban yoshlarda oilaviy hayotni ideallashtirish tendentsiyasi kuzatiladi. Ular oilaviy hayotdan birinchi bo‘lib ma’naviy o‘sish va o‘zini o‘zi takomillashtirishga bo‘lgan o‘z ehtiyojlarini qondirishni kutadilar.

H.Uzaqov, E.G‘oziyev, A.Tojiyev kelinning yangi oilaga moslashuvi xususida quyidagi fikrlarni ilgari suradilar: “Nikohga tayyorgarlik ko‘rishning muhim jihatlaridan biri kuyov-qayliqning o‘zaro, qaynota, qaynona, qarindosh-urug‘lar, xonadonning yaqin kishilari oldidagi burchlarini anglashidir.

G‘.B.Shoumarov kelinlarning yangi oilaga moslashuvi uning mijoziga ham bevosita bog‘liqligini ta’kidlab, jumladan shunday deydi: “Ko‘proq xolerik mijozga mansub bo‘lganlar yangi xonadonga tez moslashadilar. Biroq yengilroq, tezroq va andishasiz kelinlarni yangi oilaga moslashishi qiyinroq kechadi. Yangi sharoitga oson moslashadigan hamda uni osongina o‘zlashtirishga tayyor bo‘lganlar sangvinik mijozidir.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotchi olimlar izlanishlarini shuni ko‘rsatadiki, oilaviy hayotga qadam qo‘yayotgan yoshlar oilaviy munosabatlar, oila barqarorligiga ta’sir etuvchi omillar, shaxslararo munosabatning maqsadga muvofiq kechishi uning a’zolari, xususan er-xotinlarning oilaviy qadriyatlarni bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR:

1. V.M.Karimova “oila psixologiyasi”. Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. – T.: 2007
2. G. B. Shoumarov, I. O. Haydarov, N. A. Sog‘inov “Oila psixologiyasi” Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma. — T.: «Sharq», 2008
3. Arabboyeva Damegul Kurbanovna, Norkulova Nargiza Tashpulatovan “Oilaviy munosabatlar psixologiyasining nazariy va amaliy masalalari” (Metodik qo‘llanma).

Toshkent-2019

4. Fayziyeva M.X. "Oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (er-xotin misolida)". Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: 2005. – 185 b.
5. Петровский В.А. Психология неадаптивной активности. – М.: "Горбунок", 1992. – 223 с.
6. Rahimov S. "Ta'lif va tarbiya haqida". – Toshkent: "O'qituvchi", 1967. – 99
7. Rizouddin ibn Faxruddin. Oila. / Tarjimon: T.Ziyoev. – Toshkent: "Mehnat", 1991. – 64 b.
8. Salayeva M.S. "O'zbek oilalarida ota-onva farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari". Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: 2005. – 198 b.
9. Uzaqov H, G'oziyev E.G., A.Tojiyev A. "Oila etikasi va psixologiyasi" qo'llanma. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992. – 128 b.
10. Karimova V.M. "Yoshlarda o'zbek oilasi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar". Psixologiya fanlari doktorligi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Farg'ona. 1994. – 310 b.
11. Karimova V.M. Salomatlik psixologiyasi. – Toshkent: "Yangi asr avlod", 2005. – 26 b